
BUGUN TOSHLOQ TUMANIDA "YOSH GVARDIYACHILAR" SINFI OCHILDI

O'quvchi-yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga qaratilgan chora tadbirlar doirasida Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining "Umumiy o'rta ta'lim maktablarida "Yosh gvardiyachilar" ixtisoslashtirilgan sinflari faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qo'shma qarori ijrosini ta'minlash yuzasidan salmoqli ishlar amalga oshirilib, Toshloq tumanidagi 3-umumta'lim maktabida "Yosh gvardiyachilar" sinfi tashkil etildi.

Tadbirda Milliy gvardiya Farg'ona viloyati bo'yicha boshqarmasi boshlig'ining bolalar bilan ishlash bo'yicha o'rinbosari Podpolkovnik K.Toshmatov, Respublika Nurodiy jamg'armasi bo'lim boshlig'i, professor N.Musayeva, Nurodiy jamg'armasi viloyat boshqarmasi boshlig'i Z.Raxmonov, tuman hokimining o'rinbosari E.Madaminov va tuman maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi boshlig'i A.Soliyev hamda keng jamoatchilik vakillari, ota-onalar ishtirok etishib, o'zlarining samimiy fikrlarini bildirib o'tishdi.

Ta'kidlash o'rinliki, endilikda ushbu sinflarda ta'lim oladigan o'quvchilarga harbiy bilim va ko'nikmalar ham o'rgatilib, ularda Vatanparvarlik ruhi yanada mustahkamlanadi. Yurtga, Vatanga munosib farzand bo'lish uchun har tomonlama yetuk bo'lib ulg'ayadilar.

2024-05-24 16:29:30